



UO'K: 378.126

O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK VA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLAR

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ НАВЫКИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
УЧИТЕЛЯ

PEDAGOGICAL AND COMMUNICATIVE SKILLS IN TEACHER'S ACTIVITY

Tuyichiyeva Inoyatxon Ibragimovna 

Pedagogika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatlarini shakllantirish hozirgi kundagi muhim o'rini hamda o'qituvchi pedagogik mahoratida nutq madaniyati qanchalik boy bo'lsa uning bilimi, tafakkuri, ilmiy dunyoqarashi, fikr va muzokora yuritishi ham shunchalik teran bo'lishi haqida so'z borgan. Shuningdek, ushbu maqolada ta'limni sifatini oshirish uchun o'qituvchining pedagogik qobiliyati, uni rivojlantirish va undan foydalanish imkoniyatlari atroflicha yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье говорится о важной роли формирования педагогического мастерства учителя, и чем богаче культура речи в педагогическом мастерстве учителя, тем глубже будут его знания, мышление, научное мировоззрение, мысли и наблюдения. Также в данной статье подробно описаны педагогические способности учителя, возможности его развития и использования в целях повышения качества образования.

Abstract

This article talks about the important role of forming the pedagogical skills of a teacher today, and the richer the culture of speech in the pedagogical skills of a teacher, the deeper his knowledge, thinking, scientific worldview, thoughts and observations will be. This article also describes in detail the pedagogical abilities of the teacher, the possibilities of his development and use in order to improve the quality of education.

Kalit so'z: Qobiliyat, bilim, ko'nikma, malaka, perspektiv, kommunikativ, pantomimika, diapozon, tembr, nutq, pedagogika, ta'lim, madaniyat, notiqlik.

Ключевое слова: Способности, знания, умения, склонности, перцептивные, коммуникативные, пантомимические, диапазон, тембр, способности, речь, педагогика, образование, культура, красноречие.

Key words: Abilities, knowledge, skills, inclinations, perceptual, communicative, pantomimic, range, timbre, Abilities, speech, pedagogy, education, culture, eloquence.

KIRISH

Qobiliyatlar – odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, malaka, ko'nikma ortirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarning o'zi bu bilim, malaka va ko'nikmalarga ta'luqli bo'lmaydi. Masalan, ikkita bola institutga kiriyapti deylik, ulardan biri test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi, ikkinchisi o'tolmadi. Bunda ulardan birining qobiliyati ortiq degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning faqat bir o'zi bilan qobiliyatni aniqlab bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko'nikmalarini egallashda namayon bo'lsa ham ular bilim, ko'nikmalarga ta'luqli bo'lmaydilar.

Odamning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namayon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kofil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uning unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon shuhrat topgan odamlar ko'p.

Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta'kidlab o'tganidek, pedagogik jarayon o'qituvchi-tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o'quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishiga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog'liq. Bola shaxsining rivojlanishida o'qituvchining roli benihoyat muhimdir, chunki u ta'lim va tarbiya jarayonining tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo'yiladi, shuning uchun ijtimoiy-tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko'lamining ortishiga bevosita bog'liq.

Tadqiqotchi A.I.Shcherbakov fikriga ko'ra, pedagogik faoliyat – bu o'qituvchi oldiga jiddiy talablar qo'yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatga, mustahkam xarakterga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo qiladi. A.I.Shcherbakov o'qituvchi shaxsi oltita kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta'kidlaydi: 1) yuksak saviyadagi bilim va madaniyat; 2) yo'nalishning aniq ifodalanganligi; 3) yuksak axloqiy hislarning mavjudligi; 4) yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik; 5) qat'iy va silliq xarakter; 6) pedagogik qobiliyatlar.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi.

Demak qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oraliqida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga asos bo'ladi. Bunday odam kerakli ko'nikma va bilimlarni umumiy egallab olmaydi degan xulosaga borilmaydi. Bularni egallash jarayoni cho'zilib ketadi, pedagogdan ko'p kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zo'r mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida namayon bo'lishidir.

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namayon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining strukturasi oqibat natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi, endi shulardan pedagogik qobiliyat va uning tuzilishini ko'rib chiqamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obru ortira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu

pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional - irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi bir - biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, bir - biriga ta'sir etadi va bir butunlikni hosil qiladi.

1. Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng chuquroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi. Unga nihoyatda qiziqadi, tadqiqot ishlarini ham bajaradi. Ba'zan o'quvchilar orasida: "X ni professor deyaber" ko'pincha biz u o'z sohasida bilmaydigan biror narsa bormikin deb o'ylab qolamiz", "U darsni butun vujudi, jonjahdi bilan o'tadi", yoki "Vajohati katta-yu, bilimining mazasi yo'q", kabi iboralar uchrab turadi.

2. Tushuntira olish qobiliyati – o'qituvchining o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, material yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol qiziqish uyg'otish qobiliyatidir.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O'qituvchi o'quvchining mustaqil fikrlashini rag'batlantira oladi. Shunday fikrlarni uchratamiz: "O'qituvchi opamiz hech narsaga yaramas edilar, yo'l - yo'lakay biror narsani mutlaqo tushuntirib bera olmasdilar."

O'quvchilar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi katta o'qituvchilarga, o'quv materialini oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchilarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishni xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari bo'shashish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zaruratini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatiga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

3. Kuzatuvchanlik qobiliyati o'quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Qobiliyatli o'qituvchi uncha katta bo'lmagan tashqi ko'rinishlar asosida o'quvchining ichki holatidagi juda arzimagan o'zgarishlarini ham fahmlab oladi. O'quvchilarning ba'zan shunday gaplarini eshitamiz: "Qaramayotganga o'xshaydi-yu, hamma narsani ko'rib turadi", "O'qituvchimiz biror o'quvchining xafa bo'lganini yoki dars tayyorlamaganligini ko'zidan biladi".

4. Nutq qobiliyati – nutq yordamida shuningdek imo - ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib ularni asta - sekin to'g'ri javob berishga olib boradi, o'quvchining diqqatini ishga soluvchi hamda fikrini faollashtiruvchi so'z va iboralar qo'llaniladi. O'qituvchi uzundan uzoq jumlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo'llashdan qochadi. O'rinli yumor, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi, uni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his - hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq zeriktiradigan nutq o'quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrimlar tez, ayrimlar sekin

PEDAGOGIKA

gapirishga moyil bo'ladilar. O'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi. haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o'quvchilar asabini buzadi, toliqtirib qo'yadi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati - birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish muhim vazifalarini hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan o'z ishini to'g'ri uyushganligini nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his etish vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

6. Obru ortira olish qobiliyati - o'quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda obru ortira olishdir. Obru faqat shu asosdagina emas, balki o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatligi va hokozolar asosida ham qozoniladi. Avtoritar qobiliyatlar o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamligi, qat'iyliqi, talabchanligi va hokozolar) shuningdek o'quvchilarga ta'lim - tarbiya berish mas'uliyatini his etishga o'zini haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olish kabilarga ham bog'liq.


O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini hurmat qiladilar.

7. Kommunikativ - to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati. Bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabat o'rnatish bilish pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati - o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'rishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishi haqidagi tasavvur bilan bog'liq bo'lgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarini taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog'liq bo'ladi.

9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati - o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari hajmi, ham uning kuchi, ham ko'chuvchanligi, idrok qilina olishi, ham taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyektiga deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalari ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim:



Diqqat ayni bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlanish qobiliyati o'qituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyat tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va formasini o'z fikri yoki o'quvchi fikrini diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha

o'quvchilarni o'z diqqat e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik tushkunlik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat shaxsiy hatti harakatlarini kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi.

O'qituvchi yuqoridagi qobiliyatlardan tashqari sabr - toqatli, irodali bo'lishi va ibrat - namuna bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni o'zining shaxsiy namunasi, o'z shaxsiy xulq atvori va butun shaxsi bilan ham tarbiyalaydi. Bolalar uchun o'qituvchining har bir hatti harakati namunadir. Bu holat o'qituvchidan bolalarga nisbatan juda ziyarak munosabatda bo'lishni talab etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi o'qitadigan fanni mukammal bilish bilan birga yuksak axloqiy, ma'naviy pok, irodali, nazokatli, sabr toqatli, qat'iyatli, mehnatsevar, kamtar bo'lishi lozim.

O'qituvchining irodasi va ahamiyatiga to'xtalib o'tgan maqsadga erishish yo'lida turgan qarama - qarshiliklarning bartaraf qilish uchun zo'r berish bilan bog'liq bo'lgan va ma'lum maqsadga qaratilgan ongli hayotiy harakatlar irodaviy harakatlar deb nomlanadi. O'qituvchida irodaviy sifatning mustaqillik, didaktik, qat'iylik, o'zini tuta bilish kabi muhim tomonlari bo'lishi kerak.

Mustaqillikning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi o'zining ish harakatlarning tevarak atrofdagilarning tazyini, tasodifiy ta'ssurotlar bilan emas, balki o'z ishonch aqidalari, bilimlari va shu vaqtda qanday ish tutish kerakligi haqidagi tasavvurlarga asoslanib belgilaydi.

Dadillikda o'qituvchi o'z vaqtida va ortiqcha ikkilanishlarsiz yetarli darajada asoslangan qarorga keladi va shundan so'ng ularni o'ylab hayotga tadbiiq etadi.

Dadillik bilan bir qatorda qat'iylik ham ishni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi muhim sifatdir. Maqsadga erishadigan qiyinchiliklar uni hayiqirmaydi, maqsad sari intilaveradi. Irodaviy faoliyatning yuksak darajasi o'zini tuta bilishdir.

O'qituvchining sobitlilik, o'zini tuta bilish, his - tuyg'ulari, kayfiyati kechinmalarini, temperamentini boshqara olish sifatleri juda muhimdir. har qanday vaziyatda o'zini tuta oladigan, o'zini yo'qotmaydigan, ko'pam asabiylashmaydigan va bolalarning asabini ham buzmaydigan o'qituvchini o'quvchilar afzal ko'radilar.

Nerv sistemasining tipi (temperament) g'oyat barqaror, uni xoxlagan paytda tez o'zgartirib bo'lmaydi. Ammo uni qandaydir ma'noda boshqarish, jumladan salbiy tip ko'rinishlarini tutib turish mumkin. O'z tipidagi ijobiy tomonlaridan foydalana oladigan va salbiy tomonlariga barham bera biladigan, nerv sistemasi istalgan tipining namayondasi bo'lgan kishi o'qituvchi bo'lishi mumkin. O'qituvchi ishining muvaffaqiyatiga bu tiplardan tashqari, yuzaga keladigan vaqtincha psixik holatlar (kayfiyat) ham ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar kayfiyati yomon bo'lsa, ularning darslari ham yurishmasligini biladilar. Buni o'quvchilar ham sezadilar, ularga ta'sir qiladi.

XULOSA

O'qituvchi ayrim hollarda xunob bo'lishi va g'azablanishi ham mumkin, lekin shu vaqt ham o'zini yo'qotmasligi kerak, qo'pollik va haqoratga o'tmasligi lozim.

O'qituvchi bukilmas irodaviy xususiyatga ega bo'lishi, hayot va faoliyatda aslo og'ishmasdan maqsadni hatti harakatlarni amaliyotda qo'llashi lozim.

O'qituvchining sabr toqatlilik xususiyati ushbu hollarda qamrab olinishi mumkin:

- o'qituvchining xulq atvoriga, o'zlashtirish darajasiga, o'qishga munosabatiga, o'ta faolligi (sustligiga) vazminlik bilan yondashishda;
- shaxslararo munosabatdagi har xil nizoli, ziddiyatli holatlarga nisbatan shaxsiy fikrini bildirishda, ularning oldini olishda;
- maktab ichki rejimiga jamoatchilik topshiriqlariga, rag'batlantirishning zaifligiga, ba'zi illatlar ko'rinishga toqat qilib faoliyat ko'rsatishda;
- milliy an'analar bilan zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatda va boshqalarda.
- turli xususiyatlardan tashkil topgan sinfni jamoa sifatida shakllantirishda;

O'qituvchining andishalilik xususiyati muhim ro'l o'ynab, u pedagogik faoliyatning mazmundorligi, uning ta'sirchanligi mezonini bo'lib hisoblanadi.

PEDAGOGIKA

O'qituvchining andishaliligi bir qancha holatlarda ifodalanishi mumkin:

o'quvchi yoki ota - onaga yetkazilishi, uzatilishi mo'ljallangan axborot, xabar, ma'lumotga o'qituvchining kasbiy nufuziga zarar keltirishi ehtimoli nuqtai nazardan kelib chiqqan holda yondoshiladi;

o'quvchi shaxsiyatiga, o'qishga munosabatiga, sinf jamoasi o'rtasidagi nufuzga sezilarli xalal berish ehtimoli mavjudligini hisobga olishda;

ota - onalar bilan oila sha'niga nisbatan salbiy kechinmalar paydo bo'lishini e'tiborda tutishda;

oilaviy nizolar, mojarolar, ziddiyatlar, janjallar oldini olish, ularning oqibatlarini tushunishda;


shaxslar munosabat, muomala, muloqot sharoitini buzilishi va boshqa nozik holatlarni anglatadi va hakoza.

O'qituvchining andishaligini, andishaning oti qo'rqqoq qabilida tutmasligi kerak.

Bag'rikenglik o'qituvchining bag'rikenglik xususiyati xulq odob ko'rinishlari, noxulq kechinmalari, ziddiyatlar oqibatlarini ruhiy dunyodan chiqarib tashlashda ko'rib ko'rmaslikka, sezib sezmaslikka olishda ko'zga tashlanadi.

Samimiylik o'qituvchining maktab, sinf, turar joyda yuzaga kelayotgan ijobiy taraqqiyparvar voqealarga va hodisalarga nisbatan ilk munosabatini, undagi samimiylikni ifodalaydi.

Uning asosiy mohiyati quyidagi hollarda ifodalanadi:

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. «Rasmiy va norasmiy uchrashuvlar odobnomasi». T.Adolat. 1992 y.
2. Tarbiyaviy ish metodikasi (L.Ruvinskiy tahriri ostida) T.1991y.
3. Yusuf Xos Xojib. Qutadgu bilig" - T. Yulduzcha. 1991 y.